- Agar HDMI-PC rejimidan foydalanishni istasangiz, **Tiqish moslamasi yorlig'**ni PC rejimiga o'rnatishingiz kerak.
- Quyida ko'rsatilgani kabi ekranda **OSD (Ekran menyusi)** namoyish qilinadi.
  - » Mahsulotni **HDMI** kirishida yoqilganda.
  - » **HDMI** kirish joyiga o'tkazish paytida.



- Agar siz "**Ha**"ni tanlasangiz, tasvir o'lchami va sifati kompyuteringiz uchun optimallashtiriladi.
- Agar siz "**Yo'q**" ni tanlasangiz, tasvir o'lchami va sifati AV qurilma (DVD pleyer, televizion pristavka, o'yin qurilmasi) uchun optimallashtiriladi.
- Agar siz "**Bu xabar boshqa ko'rsatilmasin**"ni tanlasangiz, televizor qayta o'rnatilgunicha bu xabar boshqa paydo bo'lmaydi. Siz o'rnatilgan qiymatni **SETTINGS ► KIRISH MA'LUMOTLARI ► Tiqish moslamasi yorlig'**i o'zgartirishingiz mumkin.

## MASOFADAN BOSHQARISH PULTI


Ushbu qo'llanmadagi tavsiflar masofadan boshqarish pultidagi tugmalarga asoslangan. Iltimos, ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va televizordan to'g'ri foydalaning. Batareyalarni almashtirish uchun batareya qo'yish bo'lmasi qopqog'ini oching va uchlari bo'lma ichidagi yoriqqa mos bo'lgan batareyalar (1.5 V AAA) bilan almashtiring  $\oplus$  va  $\ominus$  batareya solish bo'lmasi qopqog'ini yoping. Batareyalarni olib tashlash uchun o'rnatish harakatlarini teskari tartibda bajaring.



### EHTIYOT BO'LING

- Eski va yangi batareyalarni aralash holda o'rnatmang, chunki bu masofadan boshqarish pultiga zarar yetkazishi mumkin.

Masofadan boshqarish pultini televizordagi masofadan boshqarish sensoriga yo'naltirganligingizga ishonch hosil qiling.



**⏻ (QUVVAT)** Televizorni yoqadi yoki o'chiradi.

**TV/RAD** Radio, TV va DTV dasturini tanlaydi.

**SUBTITLE** O'zingiz yoqtirgan subtitrni raqamli rejimda namoyon qiladi.

**AD AD** tugmasini bosgan holda audio bayonlar funksiyasi yoqiladi.

**PIP/\*** PIP rejimini yoqadi yoki o'chiradi. (Rusumga qarab)

**TV/PC** Televizor yoki kompyuter rejimini tanlaydi.

**INPUT** Ma'lumot manbasini o'zgartiradi.

**Raqamli tugmalar** Raqamlarni kiritadi.

**LIST** Saqlab olingan kanallar ro'yxatiga kiradi.

**Q.VIEW** Avvalgi ko'rilgan kanalga qaytadi.

**FAV** Sizing sevimli kanallaringiz ro'yxatiga kiradi.

**GUIDE** Teleko'rsatuvlar dasturini ko'rsatadi.

**MUTE (OVOZNI O'CHIRISH)** Barcha ovozlarni o'chiradi.

**+ / -** Ovoz balandligi darajasini sozlaydi.

**^ P v** Saqlab olingan dasturlar yoki kanallar bo'ylab o'tadi.

**^ PAGE v** Avval yoki keyingi ekranga o'tkazadi.

**TELEMATN tugmalari** (TEXT / T.OPT) Ushbu tugmalardan telematnlar uchun foydalaniladi.

**INFO** Joriy dastur va ekran to'g'risidagi ma'lumotni ko'rsatadi.

**SETTINGS** Asosiy menyularga kiradi.

**Q. MENU** Tezkor menyularga kiradi.

**Yo'naltirish tugmalari** (yuqoriga/pastga/chapga/o'ngga) Menyular yoki parametrlar kanallar bo'ylab ko'rish imkonini beradi.

**OK** Menyular yoki parametrlarni tanlaydi va siz kiritgan ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

**BACK** Avvalgi holatga qaytadi.

**EXIT** Ekranni tasvirlardan tozlaydi va televizor ko'rish rejimiga qaytaradi.

**SIMPLINK** HDMI-CEC orqali HDMI kabeli bilan ulangan AV qurilmalariga kiradi. SIMPLINK menyusini ochadi.

**REC/\*** Yozib olishni boshlaydi va yozib olish menyusini ekranga chiqaradi. (Rusumga qarab)

**Boshqaruv tugmalari** (Mening Medialarim, menyularni yoki Smart Share menyularni yoki SIMPLINK-ga mos bo'lgan qurilmalarni (USB, SIMPLINK yoki Time Machine) boshqaradi.

**Rangli tugmalar** Bular ayrim menyulardagi maxsus funksiyalarga kiradi.

(●): Qizil, (●): Yashil, (●): Sariq, (●): Ko'k)

**- + (Fon ravshanligi)** Ekranning fon ravshanligini boshqarish orqali yorqinlikni sozlaydi.



### ESLATMA

- MHEG dasturida siz sariq yoki ko'k tugma bilan fon ravshanligini o'zgartira olmasiz.

## SOZLANMALAR

### Dasturni avtomatik o'rnatish

#### SETTINGS ⇨ O'RNATISH ⇨ Avto sozlash

Dasturlarni avtomatik sozlaydi.

- Agar kiritish manbai to'g'ri ulanmagan bo'lsa, dasturni ro'yxatga olish ishlamasligi mumkin.
- **Avto sozlash** faqat hozirda uzatilayotgan dasturlarnigina topadi.
- Agar **Tizim** yoqilgan bo'lsa, parolni so'ragan holda suzuvchi oyna paydo bo'ladi.

### Tasvirlar ustasi bilan tasvirni o'zgartirish

#### SETTINGS ⇨ TASVIR ⇨ Tasvirlar ustasi III

[Modelga bog'liq ravishda]

Qimmat model qurilmalarsiz yoki mutaxassisdan yordam olmagan holda masofadan boshqarish pulti, va Tasvirlar ustasidan foydalanib, optimal tasvir sifati uchun kalibrdaydi va sozlaydi.

### Tasvirlarni ko'rsatish rejimini tanlash

#### SETTINGS ⇨ TASVIR ⇨ Tasvirlarni ko'rsatish rejimi

Atrof yoki dasturni ko'rish uchun optimallashtirilgan tasvirlarni ko'rsatish rejimini tanlaydi.

- **Aniq tasvir** : Yorqin tasvirlarni namoyish qilish uchun kontrast, ravshanlik va o'tkirligni kuchaytiradi.
- **Standart** : Tasvirlarni kontrast, ravshanlik va o'tkirlikning standart darajalarida namoyish qiladi.
- **Eco/APS**: [Modelga bog'liq ravishda] Energy Saver (Quvvatni tejash) xususiyati quvvat iste'molini kamaytirish uchun televizordagi sozlanmalarni o'zgartiradi.
- **Kino / O'yin**: Kinolar, o'yinlar uchun optimal tasvirni namoyish qiladi.
- **Sport** : Oq, maysa yoki osmon moviyiligi kabi asosiy ranglarni kuchaytirish orqali video tasvirni yuqori va dinamik harakatlar uchun optimallashtiradi.
- **ISF Ekspert 1, 2** : Ekspertlar va havaskorlarga eng yaxshi televizor ko'rishdan rohatlanishlariga imkon beruvchi tasvir sifatini sozlash uchun menyu. Bu ISF sertifikatiga ega bo'lgan tasvirlarni sozlash professionalari uchun taqdim etilgan sozlash menyusidir. (ISF logotipidan faqat ISF sertifikatiga ega bo'lgan televizorlarda foydalanish mumkin.) ISFccc: Tasvirning sifatiga baho berish institutining sertifikatiga ega kalibrash boshqaruvi
- Kirish signaliga bog'liq ravishda tasvirlarni ko'rsatish rejimlarining mavjud diapazoni farq qilishi mumkin.

- **ISF** Ekspert rejimi ma'lum tasvirdan foydalangan holda boshqarish va nozik sozlash uchun tasvirlarni sozlovchi professionalarga mo'ljallangan. Oddiy tasvirlar uchun effektlar unchalik ta'sirchan bo'lmasligi mumkin.
- ISF funksiyasi faqat ayrim modellarda mavjud.

### Mukammal boshqaruvi o'rnatish

#### SETTINGS ⇨ TASVIR ⇨ Tasvirlarni ko'rsatish rejimi ⇨ Mukammal boshqaruv / Ekspert boshqaruv

Ekranni har bir tasvirlarni ko'rsatish rejimi uchun moslashtiradi; yoki tasvir sozlanmalarini ma'lum bir ekran uchun sozlaydi. Avval o'zingiz xohlagan **Tasvirlarni ko'rsatish rejimini** tanlang.

- **Dinamik kontrast** : Kontrastni tasvir yorqinligiga ko'ra optimal darajaga o'zgartiradi.
- **Dinamik rang** : Tasvir tabiiyroq ranglarda ko'rinishi uchun ranglarni sozlaydi.
- **Teri rangi** : Teri rangini foydalanuvchi tomonidan belgilangan kabi qo'llash uchun Teri rangi spektrini alohida o'rnatadi.
- **Osmon rangi** : Osmon rangi alohida o'rnatiladi.
- **Maysa rang** : Tabiiy ranglar spektri (o'tloqlar, qirlar va boshqalar) alohida o'rnatilishi mumkin.
- **Gamma** : Kirish signaliga nisbatan tasvir signali chiqishiga ko'ra gradatsiyalar egri chizig'ini o'rnatadi.
- **Rang qamrovi** : Ifodalanishi mumkin bo'lgan Ranglar diapazonini tanlaydi.
- **Chetlarini belgilash** : Videoning tiniqroq va aniqroq, shu bilan birga tabiiy bo'lgan kontur chiziqlarni ko'rsatadi.
- **Ekspert sxemasi** : [Modelga bog'liq ravishda] Sxemalar ekspert sozlashi uchun ishlatiladi.
- **Rang filtri** : Rang to'yinganligi va tusini aniq sozlash uchun RGB ranglaridagi maxsus rang spektrini filtrlaydi.
- **Rang harorati** : Ekranning umumiy tonini istalgani kabi sozlaydi. Ekspert rejimida batafsil nozik sozlash Gamma usuli va boshqalar orqali o'rnatilishi mumkin.
- **Rang boshqarish tizimi** : Bu ekspertlar test sxemasi bilan rangni sozlashlari uchun foydalanadigan tizimdir. Ular boshqa ranglarga ta'sir ko'rsatmagan holda oltita (Qizil / Yashil / Ko'k / Havorang / To'q qizil / Sariq) rang maydonidan tanlashlari mumkin. Normal tasvirlar uchun sozlashlar ranglarning sezilarli o'zgarishiga olib kelmaydi.
- Kirish signali yoki boshqa tasvir sozlanmalariga bog'liq ravishda sozlash uchun elementlarning to'liq diapazoni farq qilishi mumkin.

**Qo'shimcha rasm opsiyalarini o'rnatish**

**SETTINGS** ⇒ **TASVIR** ⇒ **Tasvirlarni ko'rsatish rejimi** ⇒ **Rasm opsiyasi**

[Modelga bog'liq ravishda]

Tasvirlar uchun to'liq sozlanmani sozlaydi.

- **Shovqinni pasaytirish** : Tasvirdagi shovqinni bartaraf qiladi.
- **Shovqinni pasaytiruvchi MPEG formati** : Raqamli tasvir signallarini yaratishda hosil bo'lgan shovqinni bartaraf qiladi.
- **Qora darajasi** : Ekran qoraligidan (qora darajasidan) foydalangan holda kirish signali qora darajasiga mos bo'lishi uchun ekran ravshanligi va kontrastini sozlaydi.
- **Haqiqiy kino** : Ekran optimal sharoitda saqlashga yordam beradi.
- **Ko'z harakati / SUPER Energy Saving** :  
[Modelga bog'liq ravishda]  
Ravshanlikni ekrandagi tasvir harakatiga mos holda sozlash orqali quvvat iste'molini saqlaydi.
- Kirish signali yoki boshqa tasvir sozlanmalariga bog'liq ravishda sozlash uchun elementlarning to'liq diapazoni farq qilishi mumkin.

**TruMotion-dan foydalanish**

**SETTINGS** ⇒ **TASVIR** ⇒ **TruMotion**

[Modelga bog'liq ravishda]

Harakat ketma-ketliklarini silliq namoyish qilish uchun tasvirlarni to'g'riyladi.

- **Tekis** : De-judder / De-blur avtomatik rejimda yuqori diapazonda ishlayapti.
- **Toza** : De-judder / De-blur avtomatik rejimda o'rta diapazonda ishlayapti.
- **Foydalanuvchi** : De-judder / De-blur qiymatini qo'lda o'rnatish mumkin.  
De-judder: Ushbu funksiya ekran tebranishlarini rostdaydi.  
De-blur: Ushbu funksiya ekrandagi dog'lanishlarni rostdaydi va yo'qotadi.

Avtomatik degani kirish video signali holatiga bog'liq bo'lgan Tebranish va chaplanish diapazonining TruMotion rejimi tomonidan boshqarilishini bildiradi.

**Energiyani tejash xususiyatidan foydalanish**

**SETTINGS** ⇒ **TASVIR** ⇒ **Energiyani tejash**

Ekran yorqinligini o'zgartirgan holda quvvat iste'molini kamaytiradi.

- **Avto** : [Modelga bog'liq ravishda]  
Televizor sensori atrofndagi yorug'likni aniqlaydi va ekran ravshanligini avtomatik ravishda sozlaydi.
- **O'chirish** : Energiyani tejash rejimini o'chiradi.
- **Minimum / O'rtacha / Maksimum** : Avvaldan o'rnatilgan Energiyani tejash rejimini qo'llaydi.
- **Ekranni o'chirish** : Ekran o'chadi va faqat tovush chiqariladi. Ekranni qayta yoqish uchun masofadan boshqarish pultidagi Quvvat tugmasidan tashqari istalgan tugmani bosish.

**Televizor dinamiklaridan foydalanish**

**SETTINGS** ⇒ **AUDIO** ⇒ **Ovoz chiqishi** ⇒ **Televizor dinamiklari**

[Modelga bog'liq ravishda]

Ovoz televizor dinamigi orqali chiqariladi.

**Tashqi dinamiklardan foydalanish**

**SETTINGS** ⇒ **AUDIO** ⇒ **Ovoz chiqishi** ⇒ **Tashqi dinamik (Optik)**

[Modelga bog'liq ravishda]

Ovoz optik portga ulangan dinamik orqali chiqariladi.

- SimpleLink qo'llab-quvvatlanadi.

**Raqamli ovoz chiqarishdan foydalanish**

**SETTINGS** ⇒ **AUDIO** ⇒ **Ovoz chiqishi** ⇒ **Tashqi dinamik (Optik)** ⇒ **Raqamli ovoz chiqarish**

[Modelga bog'liq ravishda]

Raqamli ovoz chiqarishni o'rnatadi.

Element	Audio kirish	Raqamli audio chiqishi
Avto	MPEG	PCM
	Dolby Digital	Dolby Digital
	Dolby Digital Plus HE-AAC	Dolby Digital
PCM	Barchasi	PCM

**LG audio qurilmasini ulash va undan foydalanish**

**SETTINGS** ⇒ **AUDIO** ⇒ **Ovoz chiqishi** ⇒ **LG Ovoz sinx (Optik)**

[Modelga bog'liq ravishda]

Raqamli audio chiqish portiga Sound Sync logotipi bo'lgan LG audio qurilmasini ulang. LG audio qurilmasi boy qudratli ovozdan osongina rohatlanishingizga imkon beradi.

**Quloqlikdan foydalanish**

**SETTINGS** ⇒ **AUDIO** ⇒ **Ovoz chiqishi** ⇒ **Quloqlik**

[Modelga bog'liq ravishda]

Ovoz naushnik/quloqlik portiga ulangan quloqlik orqali chiqariladi.

**Audio va videoni sinxronlashtirish****SETTINGS ⇨ AUDIO ⇨ AV Sinx. Sozlash**

[Modelga bog'liq ravishda]

Ular o'zaro mos kelmagan holdarda video va audioni to'g'ridan-to'g'ri sinxronlashtiradi.

- Agar siz **AV Sinx. Sozlashni Yoqishga** o'rnatilsangiz, ovoz chiqishini (televizor dinamiklari yoki SPDIF) ekrandagi tasvirga sozlashingiz mumkin.

**SIMPLINK-dan foydalanish**

[Modelga bog'liq ravishda]

SIMPLINK faqat televizorning masofadan boshqarish pulti va SIMPLINK menyusidan foydalangan holda turli multimedia qurilmalarini qulay tarzda boshqarishga imkon beruvchi xususiyat.

- 1 Televizorning HDMI IN terminali va SIMPLINK qurilmasining HDMI chiqish terminalini HDMI kabelidan foydalangan holda ulang.
  - [Modelga bog'liq ravishda] SIMPLINK funksiyasiga ega bo'lgan uy kinoteatrlari uchun HDMI terminalarini yuqoridagi kabi ulang va televizorning Optik raqamli audio chiqishi terminalini SIMPLINK qurilmasining Optik raqamli audio kirishi terminaliga ulash uchun optik kabeldan foydalaning.
- 2 **INPUT(PARAMETR) ⇨ SIMPLINK**-ni tanlang. SIMPLINK menyuni oynasi namoyish qilinadi.
- 3 SIMPLINK-ni o'rnatish oynasida SIMPLINK funksiyasini **Yoqishga** o'rnatadi.
- 4 SIMPLINK menyuni oynasida o'zingiz boshqarmoqchi bo'lgan qurilmani tanlaydi.
  - Ushbu funksiya faqat SIMPLINK logotipi bo'lgan qurilmalar bilan mosdir.
  - SIMPLINK funksiyasidan foydalanish uchun yuqori tezlikli HDMI® kabeli talab qilinadi (CEC (Consumer Electronics Control) xususiyati qo'shilgan holda). Yuqori tezlikli HDMI® kabellari qurilmalar o'rtasida ma'lumotlar almashish uchun ulanadigan 13 ta kontaktarga ega. Agar boshqa kirishga o'tilsa, SIMPLINK qurilmasi to'xtatiladi.
  - Agar HDMI-CEC funksiyasiga ega bo'lgan boshqa kompaniyalarning qurilmasidan ham foydalanilsa, SIMPLINK qurilmasi yaxshi ishlamasligi mumkin.
  - [Modelga bog'liq ravishda] Agar uy kinoteatri funksiyasiga ega bo'lgan qurilma tanlansa yoki undagi media o'ynatilsa, **Uy kinoteatri dinamik(Dinamik)** avtomatik ravishda ulanadi. **Uy kinoteatri dinamik(Dinamik)** funksiyasidan foydalanish uchun optik kabel (aloqida sotiladi) bilan ulanganligiga ishonch hosil qiling.

**SIMPLINK funksiyasi bayoni**

- **To'g'ridan-to'g'ri o'ynatish** : Darhol televizordagi multimedia qurilmasini o'ynatadi.
- **Multimedia qurilmasini tanlash** : Uni darhol televizor ekranidan boshqarish uchun SIMPLINK menyusini orqali kerakli qurilmani tanlaydi.
- **Diskni o'ynatish** : Multimedia qurilmasini televizorning masofadan boshqarish pulti bilan boshqaradi.
- **Barcha qurilmalarni o'chirish** : Televizor o'chirilganda barcha ulangan qurilmalar ham o'chiriladi.
- **Sinxronlashtirilgan yoqish**: HDMI terminaliga ulangan SIMPLINK funksiyali qurilma o'ynatila boshlashi bilan televizor avtomatik ravishda yonadi.
- **Dinamik** : [Modelga bog'liq ravishda] Uy kinoteatri qurilmasidagi yoki televizordagi dinamikni tanlaydi.

**Parolni o'rnatish****SETTINGS ⇨ QULF ⇨ Parol o'rnatish**

Televizor parolini o'rnatadi yoki o'zgartiradi. Dastlabki parolga '0000' o'rnatilgan.

Mamlakat sifatida Fransiya tanlanganda, parol '0000' emas, balki '1234'dan iborat. Mamlakat sifatida Fransiya tanlanganda, parolga '0000'ni o'rnatib bo'lmaydi.

**Zavod qiymatlariga qayta tiklashni belgilash****SETTINGS ⇨ PARAMETR ⇨ Zavod sozlanmalariga qaytish**

Barcha saqlangan ma'lumotlar o'chiriladi va televizor parametrlari o'zlarining dastlabki qiymatlariga o'rnatiladi.

Televizor o'z-o'zidan o'chib yonadi va barcha parametrlar o'zlarining dastlabki qiymatlariga o'rnatiladi.

- **Tizim** joyida bo'lganida suzuvchan oyna paydo bo'ladi va parolni so'raydi.
- Ishga tushirish vaqtida televizorni o'chirmang.

**USB qurilmasini uzish****Q.MENU ⇨ USB-moslama**

O'zingiz uzishni xohlagan USB xotirasini tanlang. USB qurilmasining uzilganligi to'g'risidagi xabarni ko'rishingiz bilan qurilmani televizordan ajratib oling.

- USB qurilmasi uzish uchun tanlangandan keyin uni o'qib bo'lmay qoladi. USB qurilmasini televizordan sug'urib oling va keyin qaytadan ulang.

### USB xotira qurilmasidan foydalanish - ogohlantirish

- Agar USB xotira saqlash qurilmasida ichki qurilgan avtomatik tanib olish dasturi mavjud bo'lsa yoki u o'zining drayveridan foydalansa, ishlamasligi mumkin.
- Ayrim USB xotira qurilmalari ishlamasligi yoki noto'g'ri ishlashi mumkin.
- Faqat Windows FAT32 yoki NTFS fayl tizimi bilan formatlangan USB xotira qurilmalaridan foydalaning.
- Tashqi USB qattiq diskleri uchun baholangan kuchlanishi 5 V dan va baholangan tok kuchi 500 mA dan kam bo'lgan qurilmalardan foydalanish tavsiya qilinadi.
- Hajmi 32 GB yoki undan kamroq bo'lgan USB xotira qurilmalari va hajmi 1 TB yoki undan kamroq bo'lgan USB qattiq diskalaridan foydalanish tavsiya qilinadi.
- Agar quvvatni tejash funksiyasiga ega bo'lgan USB qattiq diski to'g'ri ishlamasa, televizorni o'chirib yoqing. Batafsil ma'lumotlar olish uchun USB qattiq diski foydalanuvchi qo'llanmasiga qarang.
- USB xotira qurilmasidagi ma'lumotlar shikastlanishi mumkin, shuning uchun muhim fayllarning zaxira nusxalarini boshqa qurilmalarga saqlab qo'yishni unutmang. Ma'lumotlarni saqlanishi uchun foydalanuvchi javobgardir va ma'lumotlarning yo'qotilganligi uchun ishlab chiqaruvchi javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

### Mening mediamni qo'llab-quvvatlovchi fayl

- Ma'lumotlarni o'tkazishning maksimal tezligi: 20 Mbit/s (soniyasiga megabit)
- Tashqi qo'llab-quvvatlanadigan subtitrlar formatlari: \*.srt (SubRip), \*.smi (SAMI), \*.sub (SubViewer, MicroDVD, DVDsubtitleSystem, SubIdx(Vobsub)), \*.ass/\*ssa (SubStation Alpha), \*.txt (TMPlayer), \*.psb (PowerDivX)
- Qo'llab-quvvatlanadigan ichki subtitrlar formatlari: XSUB (DivX6-dan hosil qilingan ichki subtitrlarni qo'llab-quvvatlaydi)

### Qo'llab-quvvatlanadigan video formatlar

- Maksimum: 1920 x 1080 @30p (faqat Motion JPEG 640 x 480 @ 30p)
- .asf, .wmv  
[Video] MPEG-2, MPEG-4 Part2, DivX3.11, DivX4, DivX5, DivX6, XVID, H.264/AVC, VC1(WMV3, WVC1), MP43  
[Audio] WMA Standard, WMA9(Pro), MP3, AAC, AC3, MP3, 3D WMV Single Stream.
- divx, .avi  
[Video] MPEG-2, MPEG-4 Part2, DivX3.11, DivX4, DivX5, DivX6, XVID, H.264/AVC  
[Audio] HE-AAC, LPCM, ADPCM, MPEG-1 Layer I, MPEG-1 Layer II, Dolby Digital, MPEG-1 Layer III (MP3), \*DTS
- .ts, .trp, .tp, .mts, .m2ts  
[Video] H.264/AVC, MPEG-2, AVS, VC1  
[Audio] MPEG-1 Layer I, MPEG-1 Layer II, MPEG-1 Layer III (MP3), Dolby Digital, Dolby Digital Plus, AAC, HE-AAC, \*DTS
- .vob  
[Video] MPEG-1, MPEG-2  
[Audio] Dolby Digital, MPEG-1 Layer I, MPEG-1 Layer II, DVD-LPCM
- mp4, .m4v, .mov  
[Video] MPEG-2, MPEG-4 Part2, DivX3.11, DivX4, DivX5, DivX6, XVID, H.264/AVC [Audio] AAC, MPEG-1 Layer III (MP3), \*DTS
- .mkv  
[Video] MPEG-2, MPEG-4 Part2, DivX3.11, DivX4, DivX5, DivX6, XVID, H.264/AVC [Audio] HE-AAC, Dolby Digital, MPEG-1 Layer III (MP3), \*DTS, LPCM
- motion JPEG  
[Video] MJPEG  
[Audio] LPCM, ADPCM
- .mpg, .mpeg, .mpe  
[Video] MPEG-1, MPEG-2  
[Audio] MPEG-1 Layer I, MPEG-1 Layer II, Dolby Digital, LPCM
- .dat  
[Video] MPEG-1, MPEG-2  
[Audio] MP2
- .flv  
[Video] Sorenson H.263, H.264/AVC  
[Audio] MP3, AAC, HE-AAC
- \*.rm, \*.rmvb  
[Video] RV30, RV40  
[Audio] Dolby Digital, AAC, HE-AAC, RA6(Cook)
- 3gp, 3gp2  
[Video] H.264/AVC, MPEG-4 Part2  
[Audio] AAC, AMR(NB/WB)
- \*DTS / \*rm / \*rmvb : Modelga bog'liq ravishda

**Qo'llab-quvvatlanadigan audio formatlar**

- Fayl turi : mp3  
[Ma'lumotlarni uzatish tezligi] 32 Kb/s - 320 Kb/s  
[Raqamlashtirish chastotasi] 16 kGts - 48 kGts  
[Qo'llab-quvvatlash] MPEG1, MPEG2, Layer2, Layer3
- Fayl turi : AAC  
[Ma'lumotlarni uzatish tezligi] Erkin Format  
[Raqamlashtirish chastotasi] 8 kGts ~ 48 kGts  
[Qo'llab-quvvatlash] ADIF, ADTS
- Fayl turi : M4A  
[Ma'lumotlarni uzatish tezligi] Erkin Format  
[Raqamlashtirish chastotasi] 8 kGts ~ 48 kGts  
[Qo'llab-quvvatlash] MPEG-4
- Fayl turi : WMA  
[Ma'lumotlarni uzatish tezligi] 128 Kb/s ~ 320 Kb/s  
[Raqamlashtirish chastotasi] 8 kGts ~ 48 kGts  
[Qo'llab-quvvatlash] WMA7, WMA8, WMA9 Standard
- Fayl turi : WMA  
[Ma'lumotlarni uzatish tezligi] ~ 768 Kb/s  
[Kanal / Raqamlashtirish chastotasi]  
M0 : 2 tagacha kanal @ 48 kGts  
(LBR rejimidan tashqari),  
M1 : 5.1 tagacha kanal @ 48 kGts,  
M2 : 5.1 tagacha kanal @ 96 kGts  
Qo'llab-quvvatlash WMA 10 Pro
- Fayl turi : OGG  
[Ma'lumotlarni uzatish tezligi] Erkin Format  
[Raqamlashtirish chastotasi] 8kGts ~ 48 kGts  
[Qo'llab-quvvatlash] OGG Vorbis

**Qo'llab-quvvatlanadigan fotosurat formatlari**

- Toifa : 2D (jpeg, jpg, jpe)  
[Mavjud fayl turi] SOF0: Asosiy,  
SOF1: Kengaytirilgan ketma-ket,  
SOF2: Progressiv  
[Fotosurat hajmi] Minimum: 64 x 64,  
Maksimum: Normal Tur: 15360 (W) x 8640 (H)  
(H), Progressiv tur: 1920 (W) x 1440 (H)
- Toifa : BMP  
[Foto o'lchami] Minimum : 64 x 64, Maksimum :  
9600 x 6400
- Toifa : PNG  
[Mavjud fayl turi] Interlace, Non-Interlace  
[Foto o'lchami] Minimum : 64 x 64, Maksimum :  
Interlace : 1200 x 800, Non-Interlace : 9600 x 6400
- BMP va PNG formatlarini namoyish qilish JPEG formatini namoyish qilishga nisbatan sekinroq bo'lishi mumkin.

**VEB QO'LLANMANI KO'RISH**

Batafsil Foydalanuvchi yo'riqnomasini olish uchun [www.lg.com](http://www.lg.com) saytiga tashrif buyuring.

## TEXNIK TA'MIRLASH

### Televizorni tozalash

Eng yuqori darajadagi namoyishni ta'minlash va mahsulot va mahsulotning xizmat ko'rsatish davomiyligini uzaytirish uchun televizoringizni muntazam ravishda tozalab boring.



#### EHTIYOT BO'LING

- Eng avval televizorni o'chirganligingiz va quvvat manbaiga ulash shnuri hamda boshqa barcha kabellarni uzib qo'yganligingizga ishonch hosil qiling.
- Televizorni uzoq vaqt davomida foydalanilmagan holda qoldirilganda chaqmoq yoki kuchlanishdagi sakrashlar natijasida yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlarni oldini olish uchun quvvat manbaiga ulash shnurini rozetkadan uzib qo'ying.

### Ekran, rama, korpus va peshtaxta

- Chang yoki yengil kirlarni ketkazish uchun yuzasini quruq, toza va yumshoq latta bilan arting.
- Asosiy kirlarni ketkazish uchun yuzasini toza suv yoki yumshoq kir yuvish vositasi eritmasi bilan namlangan yumshoq lattada arting. Keyin darhol quruq latta bilan artib yuboring.






#### EHTIYOT BO'LING

- Hamma vaqt ekranga tegib turishdan saqlanang, chunki bu ekranga zarar yetkazishi mumkin.
- Ekran yuzasiga timog'ingiz yoki o'tkir buyumlar bilan siljitmang, ishqalamang va tegib ketmang, chunki bu ekran timalishiga va tasvir buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Kimyoviy moddalardan foydalanmang, chunki bu mahsulotga zarar yetkazishi mumkin.
- Ekran yuzasiga suyuqlik sepmang. Televizor ichiga suvning kirishi yong'in, elektr toki urishi yoki qurilmaning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.

### Quvvat manbaiga ulash shnuri

Quvvat manbaiga ulash shnuridagi to'plangan changlar yoki kirlarni muntazam ravishda tozalab boring.

### Televizor ekranidagi "Qoldiq tasvir" yoki "Kuyish"ning oldini olish



- Agar harakatlanmaydigan tasvir televizor ekranida uzoq vaqt namoyish qilinsa, u ekranga qotib qoladi va ekrandagi doimiy fizik nuqsonga aylanadi. Bu ekranning "kuyishi" yoki "qoldiq tasvir"dir, va u kafolat bilan qamrab olinmaydi.
- Agar televizordagi tasvir formati uzoq vaqt 4:3 ga o'rnatilsa, ekranning hoshiya sohasida qoldiq tasvir hosil bo'lishi mumkin.
- Qoldiq tasvir hosil bo'lishini oldini olish uchun televizor ekranida uzoq vaqt davomida (LCD uchun 2 soat yoki ko'proq) harakatsiz tasvirni namoyish qilmang.

## NOSOZLIKLARNI BARTARAF QILISH

Muammo	Yechim
Televizorni masofadan boshqarish pulti orqali boshqarishning iloji yo'q.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mahsulot masofadan boshqarish pulti sensorini tekshiring va qaytadan urining.</li> <li>• Mahsulot va masofadan boshqarish pulti orasida hech qanday to'siqning mavjud emasligini tekshiring.</li> <li>• Batareyalarning ishlayotganligi va to'g'ri o'rnatilganligini ( ⊕ ga ⊕, ⊖ ga ⊖ ) tekshiring.</li> </ul>
Tasvir namoyishi va ovoz mavjud emas.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Mahsulotning yoqilganligini tekshiring.</li> <li>• Quvvat manbaiga ulash shnurining rozetkaga ulanganligini tekshiring.</li> <li>• Boshqa qurilmalarni ulab ko'rish yo'li bilan rozetkaning ishlayotganligini tekshirib ko'ring.</li> </ul>
Televizor to'satdan o'chib qoladi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Quvvat boshqaruvi sozlanmalarini tekshiring. Quvvat ta'minoti uzilgan bo'lishi mumkin.</li> <li>• <b>Avto-kutish rejimi</b> (Rusumga qarab) / <b>Vaqtli o'chirish</b> / <b>Tungi rejim taymeri</b> xususiyati <b>VAQT</b> sozlanmalarida faollashtirilganligini tekshiring.</li> <li>• Televizor yoqilgan vaqtda signal mavjud bo'lmasa, 15 daqiqalik faolsizlikdan keyin televizor avtomatik ravishda o'chadi.</li> </ul>
Shaxsiy kompyuterga PC(HDMI / DVI / RGB) orqali ulanganda "Signal mavjud emas" yoki "Noto'g'ri format" yozuvlari chiqadi.	<ul style="list-style-type: none"> <li>• Masofadan boshqarish pultidan foydalangan holda televizorni o'chiring va yoqing.</li> <li>• HDMI / RGB kabelini qaytadan ulang.</li> <li>• Televizor yoqilgan holda kompyuterni o'chirib yoqing.</li> </ul>

## TEXNIK XUSUSIYATLARI

Mahsulot xususiyatlari mahsulot funksiyalarining yangilanishi tufayli avvaldan bildirishlarsiz o'zgartirilishi mumkin.

MODELLAR		22MT45D 22MT45V	24MT45D 24MT45V
O'lchamlari (K x B x Ch)	Tayanch bilan (mm)	507,6 x 364,3 x 166,4	556,0 x 392,7 x 166,4
	Tayanchsiz (mm)	507,6 x 314,7 x 56,0	556,0 x 343,2 x 56,0
Og'irligi	Tayanch bilan (kg)	3,0	3,6
	Tayanchsiz (kg)	2,8	3,4
Quvvat iste'moli		32 Vt	32 Vt
Quvvat talabi		19 V --- 1.6 A	
AC/DC adapteri		Ishlab chiqaruvchi: Lien Chang Modeli: LCAP16A-E, LCAP25A Ishlab chiqaruvchi: Honor Modeli: ADS-40FSG-19 19032GPG, ADS-40SG-19-2 19032G	
MODELLAR		28MT45D 28MT45V	29MT45D 29MT45V
O'lchamlari (K x B x Ch)	Tayanch bilan (mm)	641,5 x 445,2 x 175,0	668,6 x 472,4 x 223,5
	Tayanchsiz (mm)	641,5 x 396,1 x 57,5	668,6 x 410,5 x 65,8
Og'irligi	Tayanch bilan (kg)	4,8	5,9
	Tayanchsiz (kg)	4,6	5,3
Quvvat iste'moli		40 Vt	48 Vt
Quvvat talabi		19 V --- 1.6 A	19 V --- 2.4 A
AC/DC adapteri		Ishlab chiqaruvchi: Lien Chang Modeli: LCAP16B-E, LCAP25B Ishlab chiqaruvchi: LG Innotek Modeli: PSAB-L205B, PSAB-L204B	Ishlab chiqaruvchi: Lien Chang Modeli: LCAP35 Ishlab chiqaruvchi: APD Modeli: DA-48F19
MODELLAR		24MT46D	27MT46D
O'lchamlari (K x B x Ch)	Tayanch bilan (mm)	566,8 x 447,7 x 188,4	641,2 x 489,1 x 213,2
	Tayanchsiz (mm)	566,8 x 346,1 x 66,5	641,2 x 391,3 x 77,8
Og'irligi	Tayanch bilan (kg)	3,9	5,3
	Tayanchsiz (kg)	3,6	4,9
Quvvat iste'moli		33 Vt	35 Vt
Quvvat talabi		19 V --- 1.6 A	19 V --- 2.0 A
AC/DC adapteri		Ishlab chiqaruvchi: Lien Chang Modeli: LCAP16B-E, LCAP25B Ishlab chiqaruvchi: LG Innotek Modeli: PSAB-L205B, PSAB-L204B	

CI modul hajmi (K x B x Ch)		100,0 mm x 55,0 mm x 5,0 mm
Atrof-muhit holati	Ishlatish harorati	10 °C dan 35 °C
	Ishlatish namligi	20 % dan 80 % gacha
	Saqlash harorati	-10 °C dan 60 °C
	Saqlash namligi	5 % dan 90 % gacha

	Sun'iy yo'ldosh raqamli TV	Raqamli TV	Analog TV
Televizion tizim	DVB-T/T2 DVB-C DVB-S/S2	DVB-T DVB-C	PAL/SECAM B/GI/D/K, SECAM L/L'
Kanal qamrovi	VHF, UHF C-Band, Ku-Band	VHF, UHF	VHF: E2 dan E12, UHF: E21 dan E69, CATV: S1 dan S20, HYPER: S21 dan S47
Saqlanadigan kanallarning eng ko'p soni	6,000	1,500	
Tashqi antenna qarshiligi	75 Ω		

**RGB (PC) / HDMI (PC)-ni qo'llab-quvvatlash rejimi**

(Faqat 22MT45\*, 24/27MT46\* da)

Yechim	Gorizontal chastota (kGz)	Vertikal Chastota (Gz)
720 x 400	31,468	70,080
640 x 480	31,469 37,500	59,940 75,000
800 x 600	37,879 46,875	60,317 75,000
1024 x 768	48,363 60,023	60,004 75,029
1024 x 768 (Faqat HDMI(PC) da)	56,476	70,069
1152 x 864	67,500	75,000
1280 x 720	45,000	60,000
1280 x 800	49,702	59,810
1280 x 1024	63,981 79,976	60,020 75,025
1400 x 1050	65,317	59,978
1440 x 900	55,935	59,887
1600 x 900	60,000	60,000
1680 x 1050	64,674 65,290	59,883 59,954
1920 x 1080	67,500	60,000

(Faqat 24/28/29MT45\* da)

Yechim	Gorizontal chastota (kGz)	Vertikal Chastota (Gz)
720 x 400	31,468	70,080
640 x 480	31,469 37,500	59,940 75,000
800 x 600	37,879 46,875	60,317 75,000
1024 x 768	48,363 60,023	60,004 75,029
1280 x 800	49,702	59,810
1366 x 768	47,717	59,79

**ESLATMA**

- Optimal display sifati  
- 22MT45\*, 24/27MT46\*: 1920 X 1080 @ 60 Gz.  
- 24/28/29MT45\*: 1366 X 768 @ 60 Gz.
- Har bir modelda optimal vaqt vertikal chastota 60 Gz.

**HDMI (DTV)-ni qo'llab-quvvatlash rejimi**

Yechim	Gorizontal chastota (kGz)	Vertikal Chastota (Gz)
720 x 480	31,469 31,500	59,940 60,000
720 x 576	31,250	50,000
1280 x 720	37,500 44,960 45,000	50,000 59,940 60,000
1920 x 1080	33,720 33,750 28,125 27,000 33,750 56,250 67,430 67,500	59,940 60,000 50,000 24,000 30,000 50,000 59,940 60,000

**Komponentni qo'llab-quvvatlash rejimi**

Yechim	Gorizontal chastota (kGz)	Vertikal Chastota (Gz)
720 x 480	15,730 15,750 31,470 31,500	59,940 60,000 59,940 60,000
720 x 576	15,625 31,250	50,000
1280 x 720	44,960 45,000 37,500	59,940 60,000 50,000
1920 x 1080	33,720 33,750 28,125 56,250 67,430 67,500	59,940 60,000 50,000 50,000 59,940 60,000

**Komponent portga ulash to'g'risidagi ma'lumotlar**

Televizordagi komponent portlar	Y	P <sub>B</sub>	P <sub>R</sub>

Video chiqish portlari DVD pleyerda	Y	P <sub>B</sub>	P <sub>R</sub>
	Y	B-Y	R-Y
	Y	Cb	Cr
	Y	Pb	Pr









Mahsulotdan foydalanishdan avval  
Ehtiyotkorlik choralarini albatta o'qib  
chiqing.

Televizorning model va seriya raqamlari  
televizorning orqa paneli va yon tomonida  
joylashgan. Xizmat ko'rsatish zarur  
bo'lgan hollar uchun uni yozib qo'ying.

MODEL I \_\_\_\_\_

SERIYA RAQAMI \_\_\_\_\_